

# Yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti foydalanishga topshirildi



Mazkur tantanali tadbirning ochilish marosimida Termiz shahar hokimi O'.To'rayev ishtirok etib, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish bo'yicha Davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilgan keng imkoniyat va imtiyozlar to'g'risida so'z yuritdi.





Tadbirda nuroniylar, mahalla faollari, soha mas'ullari va OAV vakillari ishtirok etishdi. Yangi yil bayrami arafasida ushbu muassasaning foydalanishga topshirilishi ota-onalar va bolajonlar quvonchiga quvonch qo'shdi.